

Rus tilimi? Endi muammo yo`q...

Aziz o`quvchi, siz hozirda qo`lingizda rus tilini o`rganish bo`yicha Bebaho xazinani ushlab turibsiz. Uzoq vaqt mobaynida rus tilini o`rganishga qiziqayotganlar shu kabi kitobni kutishdi.

Avvallari, rus tilini o`rganaman degan odam kitob do`koniga kirsa, rus tili bo`yicha lug`atchalar, so`zlashgichlar va kichik-kichik kitoblarni qo`lga kirita olardi. Ammo, ular yetarlicha samara berarmidi? Afsuski, yo`q! Bolalikdan rus tiliga ixtisoslashtirilgan maktablarda o`qigan bolalar rus tilini mukammal ravishda egallab, rus tilida bemalol suhbat qura olishadi. Ammo, o`zbek sinflarda o`qiganlar ko`plab repetitorlarga ham borib, bu kabi natija ko`rsata olishmaydi, agar ular rus muhitida o`smagan bo`lishsa, albatta!

Shu sabab, bu kabi muammoni uzoqdan ko`ra olganimiz uchun siz uchun maxsus “Экспресс-курс Русского языка за 50 часов” kitobini ishlab chiqdik. Quyida qisqacha kitob haqida izoh berib o`tamiz.

Ushbu qo`llanma hech ham oddiy kitob emas, u yerda nazariy bilimlar kam beriladi, asosiy urg`u amaliyotga qaratilgan. Ko`p o`quvchilarni 50 soat ichida o`rganish mumkinmi, degan savol qiynaydi. Bu kabi o`quvchilarga aytib qo`yishimiz joizki, 50 hayotiy soat emas, balkim 50 akademik soat, ya`ni bu kitob bilan 50 soat shug`ullanganingizdan so`ng ushbu natijaga chiqa olasiz.

Asosiy urg`u so`z yodlashga beriladi. Bu yerda 5000ta barcha hayotiy zarur hisoblangan mavzularga to`liq lug`at berilgan, ya`ni ushbu 5000ta so`zni yodlab bo`lgach, siz rus tilidan juda ham mustahkam bazaga ega bo`lasiz. So`z yodlash texnikasi haqida ko`p eshitgansiz, bu haqida ko`p ma`lumot berib o`tirmaymiz. Asosiy ustunlik taraflarini sanab o`tamiz.

Qo`llanma 5000ta mavzulashtirilgan assotsiatsiyalashtirilgan so`zlardan iborat. Ushbu assosiasiyalar sizni yodlash tezligingizni kamida 10 barobariga oshiradi va miyangizda mustahkam joylashishini ta`minlab beradi. Ya`ni, ushbu uslubni to`liq egallab olganingizdan so`ng, siz o`zingiz bilmagan holatda xotirangiz potensialidan to`liq foydalana boshlaysiz. Assosiativ uslub haqida keyinroq to`liq ma`lumot berib o`tamiz. Shunchaki, natija orqali sizga ko`rsatishimiz mumkinki, agar oldin siz bir soatda 10-20ta so`z yodlagan bo`lsangiz, ushbu uslub orqali siz endilikda soatiga 100tadan 240tagacha so`z yodlay olasiz. Agar juda ham qattiq ishlasangiz, istaganingizcha rekord o`rnatishingiz mumkin, sababi, jahon bo`yicha ushbu uslubdan foydalanib 400-500tagacha rekord o`rnatgan rekordsmenlar mavjud.

Har bir mavzuni tugatgach sizga mustahkamlash uchun maxsus mashqlar beriladi. Ushbu mashqlar siz yodlagan so`zlaringizni bir umrga eslab qolishingizni kafolatlab berishadi.

Qolaversa, har bir mavzu oxirida audio mashqlar ham berib o`tiladi. Kichik-kichik dialoglar orqali siz yodlagan so`zlaringizni qaysi gaplarda, qanday vaziyatlarda ishlatishni o`rganib olasiz. Bu holat sizning ong ostingizga joylashadi va barcha kerakli vaziyatlarda gaplar o`zi avtomatik chiqishini ta`minlab beradi. Ko`rinib turibdiki, ushbu qo`llanma ustida yaxshigina bosh qotirishimizga to`g`ri keldi.

Qo`llanma dunyoning eng kuchli ta`lim texnikalar yordamida ishlab chiqilgan, bu degani ushbu texnikalar ancha yillardan buyon qo`llanib kelinmoqda va tekshiruvdan o`tgan. Shunday ekan, bemalol qo`rqmasdan rus tilini o`rganish bo`yicha katta sakrashlar qilishingiz mumkin.

Sizga shu narsani qo`rqmasdan aytishimiz mumkinki, bu kabi qo`llanma hali-beri bo`lmagan, ishonmasangiz, shunchaki hozirda qo`lingizda turgan kitobning demo-versiyasini oxirigacha ishlab chiqing va bunga o`zingiz amin bo`ling.


Xotira mashqlarini bajarish majburiy! Ushbu mashqlar xotirangiz potensialini ochib beradi hamda so`z yodlash jarayoningizni tezlashtirib beradi.

Statistika ma`lumotlariga ko`ra til o`rganuvchi 90% vaqtini so`z yodlash uchun sarflar ekan. Demak, so`z yodlash jarayoni tezlashtira olsak, til o`rganishning qolgan bo`limlari bizdan uncha katta vaqt olmaydi. Biz aynan shu ishni siz uchun bajardik.

Adolat uchun qo`llanmani salbiy taraflari haqida ham gapirib o`tishimiz joiz. Ushbu qo`llanma hammada ham ishlayvermaydi, sababi hammani xotira potentsiali turli xil. Kingadir bu uslub to`g`ri kelsa, kingadir to`g`ri kelmaydi. Shu bois, qo`llanmani sotib olishdan oldin, ushbu demo-versiyani ishlab ko`ring. Agar natijasi sizni qoniqtirsa, unda qo`rqmasdan kitobning qolgan qismini sotib olishingiz mumkin. Agar natija siz o`ylagandek bo`lmasa, boshqacha uslub qidirishni maslahat berib qolamiz.

Xotira

Birinchi bo`lib miyani ishlash tempini oz-moz o`rganib chiqamiz. Miyyamiz ikki qismdan iborat.



Chap va o`ng. Chap qism asosan mantiqqa, o`ng qism emotsiyalarga javob beradi.

Chap qism matnli xotira hisoblanadi: turli xil so`zlar, matnlar, raqamlar, faktlar, analizlar va h.k.

O`ng qism emotsional xotira hisoblanadi: beshta his tuyg`u – ko`rish, eshitish, hid sezish, ta`m bilish va taktil xotira.

Chap qism 10% eslab qolish potensialiga ega. O`ng qism 90% ma`lumotni saqlab qolish potensialiga ega.

Chunki, bir o`ylab ko`ring, siz tasavvurlar orqali o`ylaysizmi yoki miyyangizda matnlar paydo bo`ladimi? Albatta tasavvurlar.

Tasavvur – 80% eslab qolish kuchiga ega. Qolgan his-tuyg`ular qolgan 10% bo`lishib oladi.

Nega yoshlikda bog`cha bolalarini xotirasi kuchli bo`ladi, deymiz? Chunki ular matnli xotiraga o`tishmagan, ular barcha axborot tasavvuran eslab qolishadi. Miyyani o`rtasi, ya`ni bog`lab turuvchi torgina yo`lakcha Corpus callosum deb nomlanadi. Miyyani ikki qismini bog`lash eng qiyin ish. Agar ikki qismdan foydalanib eslab qolish ko`nikmasiga ega bo`lsak, biz istagan ma`lumotimizni 100% eslab qolishimiz mumkin. Biz hozir aynan o`sha uxlab chang bosib yotgan xotirani tiriltirishimiz kerak.

Boshida qiyin bo`ladi albatta. Lekin har qanday inson uddalay oladi. Insonning o`ng qismini tiriltirish va xotirasini kuchaytirish uchun maxsus fan mavjud – Mnemonika fani. Bu sohani ko`pchilik biladi chamamda. Televizorlarda ikkita yigitlar chiqib o`z xotirasining kuchlarini ko`rsatadi, bu narsa hech kimga sir emas. Biz xotiramizni tiriltirish uchun 1tagina mashqning o`zi yetarli.

Mnemonika tarixdan barchamizga ma`lum. O`z davrida Siseron mnemonika haqida ko`plab ishlarni yozib qoldirib ketgan. Qadimgi Yunonistonda Mnemonika Xudosi bo`lgan. U xotira mabudi bo`lgan va shu sabab bu fanni uning nomiga atashgan.

Endilikda sizga vazifa. Xotirangizni sinab ko`ramiz. Quyidagi 20ta so`zni yodlab, ketma-ket, bexato aytib ko`rishga harakat qiling.

1. Banan;
2. Ruchka;
3. O`rmon;
4. Muzlatgich;
5. Gilam;
6. Oshpaz;
7. Osmon;
8. Yog`;
9. Mashina;
10. Stadion;
11. Bodring;
12. Ayiq;
13. Bulut;
14. Qulupnay;
15. Kompyuter;
16. Non;
17. Maktab;
18. Televizor;
19. Piyoz;
20. O`rdak.

Ko`rib turibsiz, yodlab olish bilan bu ish juda qiyin. Ammo assosiasiyalar yordamida bularni yodlab olish juda oson. Shunchaki bitta so`zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish kerak.

Miyamiz kichik-kichik neyronchalardan tashkil topgan. Ma`lumot miyyaga kelishi bilan neyronlar biri-biriga sinaps ya`ni bog`lovchilar orqali biri-biriga ma`lumotni uzatadi. Mnemonika aynan shunga asoslangan. Ya`ni birinchi axborotni ikkinchisi bilan bog`lash.

Hozir sizga qanday bog`laganimni ko`rsatib beraman. Banan ruchkada xat yozyapti, so`ng ruchka katta qilib ruchkani rasmini chizdi. O`rmon ichi muzlatgichlarga to`la. Muzlatgichni ochyapmiz ichi muzlab qolgan gilamlarga to`la. Gilamlarni qoqib tashlanganda, u yerdan juda ko`p oshpazlar yog`ilishni boshladi. Va birdan oshpazlar osmonga uchib chiqib ketib qoldi. So`ng osmonda ovqat pishirishgandi, yog`lar yerga tushib, mashinalarni bosib qola boshladi. So`ng mashinalar qayerga qochishini bilmay, stadionga yopirilib kirib keta boshlashdi. O`sha paytda stadionda bodringlar ayiqlarga qarshi futbol o`ynashayotgandi. Birdan ayiqlarning ostidan bulutlar paydo bo`lib osmonga uchirib keta boshlashdi. Ayiqlar u yerda qulupnay topib olib, qulupnay yeya boshlashdi. Qulupnaylar kompyuter o`ynab o`tirishgandi. Kompyuter ichida bo`lsa katta nonni rasmi bor edi. Birdan o`sha nonlarni maktablarga tarqata boshlashdi. Maktablar televizorda ko`rsatila boshlandi. Televizorni ko`rganlar, televizorga piyozlar ota boshlashdi. Piyoz televizorga tegishi bilan ichidan o`rdaklar otilib chiqa boshlashdi.

Ma`lumotlarni ulashni o`rgandik. Endi mustaqil ravishda o`zingiz shug`ullanib ko`rishingiz lozim. Demak, yana amaliyot. Men sizga yana 20ta so`z beraman. Siz shoshilmasdan ularni ulab ko`rasiz.

1. Telefon;
2. Qovun;
3. Uy;
4. Quyon;
5. Olma;
6. Mars sayyorasi;
7. Tog`;
8. Robot;
9. Ko`zoynak;
10. Uzum;
11. Oyna;
12. Kondisioner;
13. Bo`ri;
14. Yo`lbars;
15. Tuxum;

16. Yer;
17. Dala;
18. Poyezd;
19. Qalam;
20. Limon.

Muhim qoidalar:

1. Obrazlaringizni iloji boricha jonlantiring va katta hajmlarda tasavvur qiling;
2. Obrazlar harakatga kelsin;
3. Assosiatsiyalar fantastik va kulguli bo`lsin.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Telefon;
2. Qovun;
3. Uy;
4. Quyon;
5. Olma;
6. Mars sayyorasi;
7. Tog`;
8. Robot;
9. Ko`zoynak;
10. Uzum;
11. Oyna;
12. Kondisioner;
13. Bo`ri;
14. Yo`lbars;
15. Tuxum;
16. Yer;
17. Dala;
18. Poyezd;
19. Qalam;
20. Limon.
21. Banan;
22. Ruchka;
23. O`rmon;
24. Muzlatgich;
25. Gilam;
26. Oshpaz;
27. Osmon;
28. Yog`;
29. Mashina;
30. Stadion;

31. Bodring;
32. Ayiq;
33. Bulut;
34. Qulupnay;
35. Kompyuter;
36. Non;
37. Maktab;
38. Televizor;
39. Piyoz;
40. O`rdak.

30ta so`z:

1. O`rik;
2. Sandiq;
3. Kosmonavt;
4. Tog`;
5. Poyezd;
6. Sigir;
7. Kalamush;
8. Ko`zoynak;
9. Qulupnay;
10. Televizor;
11. Raqamlar;
12. Shaftoli;
13. Rasm;
14. Baraban;
15. Stul;
16. Mars;
17. Xurmo;
18. Bozor;
19. Gullar;
20. Matematika;
21. Qatiq;
22. Yilpig`ich;
23. Ko`ylak;
24. Yulduzlar;
25. Samolyot;
26. Director;
27. Kasalxona;
28. Piyola;
29. Limon;
30. Musiqa.

40ta soʻz:

1. Muzlatgich;
2. Mushuk;
3. Shox;
4. Kolbasa;
5. Nemis;
6. Qasr;
7. Tez yordam;
8. Otlar;
9. Televizor;
10. Soqol;
11. Tilla tish;
12. Telefon trubkasi;
13. Diplomat;
14. Oʻgʻri;
15. Moʻylab;
16. Aktrisa;
17. Mashina;
18. Chamadon;
19. Daryo;
20. Vaqt mashinasi;
21. Jinnixona;
22. Militsiya;
23. Eshik;
24. Ananas;
25. Multfilm;
26. Lift;
27. Qovurilgan baliq;
28. Cherkov;
29. Askarlar;
30. Kamalak;
31. Nayzalar;
32. Stakan;
33. Gilam;
34. Taxt;
35. Shahar;
36. Boʻri;
37. Magazin;
38. Taqinchoqlar;
39. Tish doktori;
40. Kreslo.

50ta so`z:

1. Gips;
2. Kema;
3. Shlyapa;
4. Pistolet;
5. Pul;
6. Palto;
7. Bolg`a;
8. Qo`l;
9. Olma;
10. Restoran;
11. Osmon;
12. Qushlar;
13. Fil;
14. Sahro;
15. Cho`chqa;
16. Sharbat;
17. Banan;
18. Dollar;
19. Yo`lbars;
20. Hakker;
21. Kitob;
22. O`qituvchi;
23. Temir;
24. Palov;
25. Bedana;
26. Choyxona;
27. Texnologiya;
28. Kutubxona;
29. Orol;
30. Kosmos;
31. Miya;
32. Non;
33. Kalamush;
34. Pishloq;
35. Fotoapparat;
36. Ko`prik;
37. Til;
38. Qizlar;
39. Kabutar;
40. Gitara;
41. Universitet;
42. Pomidor;

43. Jarlik;
44. Eshak;
45. Devor;
46. Soch;
47. Qabr;
48. Yurak;
49. Dev;
50. Skripka.

Soʻz yodlash jarayoni bir necha qadamlardan iborat:

- 1) Avvalo, biz chet tilidagi soʻzni oʻzbek tilidagi biron soʻzga oʻxshatib olishimiz lozim. Misol uchun, Слон (slon) soʻzi, bu rus tilidan tarjimada fil degani. Endi “slon” soʻzi qaysi oʻzbekcha soʻzga oʻxshaydi, misol “salon” soʻziga oʻxshatishimiz mumkin. Bu nima uchun kerak? Bizning miyamiz shunday tuzilganki, biron yangi maʼlumotni eslab qolish uchun, avvalo u eski maʼlumot bilan birikishi lozim. Agar sizda u haqidagi eski maʼlumot mavjud boʻlmasa, miyamiz buni tushunmaydi. Misol uchun, limon soʻzini aytsam, siz tasavvur qila olasiz, shunday emasmi? Sababi, siz limonni koʻrgansiz, hatto-ki yeb koʻrgansiz, u haqida miyada maʼlum bir maʼlumotlar qolib ketgan. Ana endi Bengal yongʻogʻi desamchi? Sizda biron fantaziya paydo boʻldimi? Siz oddiy yongʻoqni tasavvur qilasiz yoki umuman tasavvur paydo boʻlmaydi. Sabab? Chunki, siz oldin bu soʻzga duch kelmagansiz, sizda eski maʼlumot yoʻq, shu sabab yangi maʼlumot qoʻshila olmadi. Chet tilidagi soʻzlar bilan ham xuddi shu holat. Yaʼni chet tilidagi soʻzlar bizning miyamiz uchun yangilik va uni eslab qolishi uchun u eski maʼlumotga tayanishi kerak. Yaxshilab eʼtibor bersangiz, standard uslubda yodlagan vaqtingizda, faqatgina oldin eshitgan, biron filmda koʻrib qolgan yoki koʻp takrorlangan soʻzlaringiz yodingizda qoladi. Shunday ekan, bu miyamizning tabiiy jarayoni hisoblanadi. Biz esa bunga yordam berib yuboramiz. Demak, bizdagi eski maʼlumot – bu biz biladigan oʻzbek yoki boshqa tildagi soʻz hisoblanadi, shu bois biz chet tilidagi soʻzni oʻzimiz bilgan biron soʻzga oʻxshatib olamiz. Buni biz assosiasiya deb ataymiz;
- 2) Tayyor boʻlgan assosiasiyani tarjima bilan birlashtiramiz. Misol uchun, Slonni “salon”ga oʻxshatgandik. Endi tarjima yaʼni filni olamiz, fil salonda soch turmaklatayotganini tasavvur qiling;
- 3) Assosiasiya tayyor boʻlgan boʻlsa, 3 marta rus tilidan oʻzbek tiliga, 3 marta oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilib qaytarasiz;
- 4) Yana bir muhim qoida, bittada beshtadan ortiq soʻz yodlamang. Yaʼni 10 – 20talab soʻz yodlamang. Bizning miyamiz bittada 5tadan ortiq maʼlumotni ushlab tura olmaydi. Avval, beshta soʻzni assosiasiya qilib olamiz, soʻng ularni 3 martadan tarjima qilamiz, soʻng keyingi beshta soʻzga oʻtamiz, ana shunda zoʻriqish ham, charchash ham boʻlmaydi;
- 5) 96 soat qoidasi. Har bir yodlagan soʻzingizni 4 kundan soʻng bir marta qaytarib chiqing. Bu nega kerak? Bizning miyamiz yangi olingan maʼlumotni 4 kun davomida oʻzida ushlab turadi, agar u qayta ishlatilmasa, uni chetga chiqarib yuboradi. Shu bois, 4chi kuni soʻzlarni bir marta qaytarib chiqing, ana shunda soʻzlar bir umrga yordingizda qoladi. Misol, bugun 200ta soʻz yodladingiz va bugun dushanba, payshanba kuni shu 200tani qaytarib chiqasiz;

6) Shahar metodi. O`zingiz yaxshi bilgan bitta shaharni tanlab olasiz. U shaharni butunlay bo`shatib tashlaysiz, ya`ni odamlarni shahardan olib tashlaysiz, albatta tasavvuringizda! So`ng, har bir yasagan assosiasiyangizni shahar bo`ylab joylashtirib chiqasiz. Misol uchun, salonda soch turmaklatayotgan filni oshxonangizga qo`yib qo`yasiz. Avvalo o`z uyingizdan boshlang, so`ng sekin boshqa joylarga qo`yib chiqishni boshlang. Bu nega kerak? Bu uslub yordamida, siz yasagan assosiasiyalar havoda uchib yurmaydi, ularning aniq bir makoni bo`ladi, makon bo`lgach, siz hatto-ki turgan joyigacha aytib bera olishingiz mumkin.

Местоимения Olmoshlar

1. Я - men; (Yayra) Tasavvur qiling, sochi yo'q Yayra tongda hammani “Men kelidim” deb uyg'otmoqda;
2. Ты - sen; (Tiyin) Qizil it mushukka qarab “sen bir tiyinga ham arzimaysan” deb ustidan kulyapti;
3. Он - u (o'g'il bola); (O'n) Tasavvur qiling, siz o'nta o'g'illik bo'ldingiz, endi ularni birma-bir uylantirasiz;
4. Она - u (qiz bola); (Ona) Ona semiz qiziga pakana yigit topib “u yaxshi bola” deb qizini ko'ndiryapti;
5. Оно - u (narsa); (Anor) Oyog'i bor Anor o'ziga oyoq kiyim sotib olib, barchaga maqtanmoqda;
6. Мы - biz; (Miya) Tasavvur qiling, miyangiz va boshqa ichki a'zolaringiz “biz sendan voz kechamiz” deb sizni qo'rqitmoqda;
7. Вы - siz(lar); (Vir) Vir va Zaradagi Vir Toshkentga kelib, sizni Hindistonga olib ketishini aytmoqda;
8. Они (ani) - ular; (Ari) Ko'r ari odamlarga qarab “ularni chaqib olaman” deb birdan o'lib qoldi;

Приветствия - Salomlashish Прощания - Xayrlashish Извинения - Kechirim so'ramoq Благодарность - Minnatdorchilik

9. Здравствуй! - Assalomu aleykum: (Zira stul) Tasavvur qiling, stul ustida yotgan zira sizga turib salom bermoqda;
10. Доброе утро! - Xayrli tong: (Do'mbira o'rtoq) Tasavvur qiling, semiz o'rtog'ingiz tongda qushlarni do'mbira chalib uyg'otmoqda;
11. Добрый день! - Xayrli kun: (Dovdir deng) Bir dovdir bola sizga Xayrli kun dedi, hurmat yuzasidan siz ham unga shunday deng;
12. Добрый вечер! - Xayrli kech: (Dovdir kechir) Siz dovdirning oyog'ini bosib oldingiz, kechir va Xayrli kech, deb ketib qoldingiz;
13. Привет! - Salom: (Paynet) Tasavvur qiling, yoningizdagi paynet o'zidan o'zi rus tilida salom, demoqda;
14. Как дела? - Ishlar qalay? : (Kamera) Bahaybat kamera televizorga qarab ishlar qalay, deb so'ramoqda, televizor esa uni hatto eshitmadi ham;
15. Что нового? - Nima yangiliklar? (Shtor Navo va) Shtor “Navo” kanalini tomosha qilmoqda va sizdan bodroq olib kelishingizni so'ramoqda;

16. До свидания! - Ko'rishkuncha!: (Do'st Daniya) Daniyaga ketgan piska do'stingiz ko'rishkuncha, degan so'zni yoddan chiqarib qo'yibdi;
17. До скорой встречи! - Tez orada ko'rishkuncha!: (Doska pistachi) Tasavvur qiling, qora doska pistachi ayol bilan sizning g'iybatingizni qilmoqda, siz ularga "Tez orada ko'rishkuncha", deb ketib qoldingiz;
18. Пока! - Xayr!: (Pakana) Pakana odam sizga Xayr demoqda, ammo siz uni ko'rmayapsiz, chunki u juda pakana;
19. Спасибо! - Rahmat!: (Spalnida) Spalnida turgan qora o'rgimchak yotog'ingizdagi mevalarni yeb, sizga rahmat demoqda;
20. Большое спасибо! - Katta rahmat!: (Bolish spalnida) Boyagi o'rgimchak spalnida bolishni topib, sizga yana katta rahmat demoqda;
21. Пожалуйста (ответ) - Arzimaydi: (Pochcha yuzta) Pochchangiz sizga yuzta daftar olib kelib berdi va rahmatdan avval arzimaydi, deb ketdi;
22. Извини(те)! - Kechiring! Kechirasiz!: (Izlanibdi) Siz erinchoq, deb o'ylagan o'quvchi kecha juda izlanibdi, siz unga kechir, deb aytdingiz;
23. Извиняться - kechirim so'ramoq: (Kanalizatsiya) Tasavvur qiling, kanalizatsiyadagi kalamushlar sizni tishlab olgani uchun kechirim so'rashmoqda;
24. Простите! - UZR! Kechiring!: (Pastda tigr) Pastda tigr uxlab yotibdi, uni bexosdan uyg'otib yubordingiz, so'ng uzr, deb qochib qoldingiz;
25. Ничего страшного! (ответ) - Hechqisi yo'q!: (Ninachi silash nima) Tasavvur qiling, siz ninachini silayman, deb uning qanotini sindirib qo'ydingiz, u "Hechqisi yo'q!", deb yig'lab o'tiribdi;
26. Пожалуйста - iltimos: (Pojar usta) Ustaning 4 qavatlik uyida pojar bo'lmoqda, u sizdan iltimos qilib yordam so'rayapti;
27. Не забудьте! - Yoddan chiqarmang!: (Nayza buta) Tasavvur qiling, nayza yashil butaga aylanib qolib unga suv quyishni yoddan chiqarmasligingizni aytmoqda;
28. Конечно! - Albatta!: (Konechka) Konechkadagi tirik avtobus "sizdan pul olmayman", deb albatta sizni laqillatmoqda;
29. Конечно нет! - Albatta yo'q!: (Kasha tep) Kasha sizni kecha rosa tepdi bugun esa "uni albatta tepganim yo'q", deb aldamoqda;
30. Согласен! - Rozi(man)!: (Sariq losina) Tasavvur qiling, sariq losina uni yoqib yuborishlariga rozilik bermoqda;
31. Хватит! - Yetar!; (Hamid) Bo'yi 2 metrlik Hamid siz bergan pul uning umrini oxirigacha yetadi, deb o'ylayabdi;

32. Господин - Janob; (Gastrit) Tasavvur qiling, bir qari janob sizga gastrit bo'lib qolganini aytib yig'lab otiribdi;

33. Госпожа - Xonim; (Gaz pashsha) Gaz yonida turgan xonim ovqat ichiga pashshalarni solmoqda;

34. Девушка - qiz bola; (Dev uchta) Tasavvur qiling, qiz bola uchta devni o'zi yengib katta oltinni olib ketdi;

35. Молодой человек - yosh yigit; (Mana boy chelak) Yosh yigit dunyodagi eng boy chelakni barchaga ko'rsatib "mana u!", deb baqirmoqda;

36. Мальчик - bola; (Moychechak) Sochi qizil bola bir qop moychechak terib sizga sovg'a qilib yubordi;

37. Девочка - qizcha; (Devcha) Tasavvur qiling, bo'yi juda past qizcha bo'yi baland devcha bilan berkinmashoq o'ynashmoqda;



Mashq Assotsiatsiyalarning asl ma'nosini toping

Yayra - Я	Izlanibdi -
Devcha -	Doska pistachi -
Gaz pashsha -	Tiyin -
Ninachi silash nima -	Spalnida -
Moychechak -	Gastrit -
Gastrit -	Shtor "Navo" va -
Hamid -	Mana boy chelak -
Dovdir deng -	Kasha tepa -
Sariq losina -	Konechka -
Pashsha usta -	Bolish spalnida -




Audio Matndagi tushib qolgan so'zlarni tinglab yozing

- | | |
|-------------------------|----------------|
| - Привет, я Маша! | - Пока, Маша! |
| - Привет, я Саша! | - _____, Саша! |
| - _____, Саша? | |
| - Отлично, _____? | |
| - Хорошо, спасибо. | |
| - День _____, да, Маша? | |
| - Согласна. | |

Числа от 0 до 100 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlar



Один



Два



Три



Четыре



Пять



Шесть




Семь




Восемь



Девять




Ноль



Десять



Одиннадцать



Двенадцать



Тринадцать



Четырнадцать




Пятнадцать



Шестнадцать




Семнадцать




Восемнадцать




Девятнадцать




Двадцать




Двадцать один



Двадцать два



Двадцать три




Тридцать




Тридцать один



Тридцать два




Тридцать три



Сорок




Сорок один



Сорок два




Сорок три



Пятьдесят




Пятьдесят один



Пятьдесят два




Пятьдесят три




Шестьдесят




Шестьдесят один



Шестьдесят два



Шестьдесят три



Семьдесят




Семьдесят один



Семьдесят два




Семьдесят три




Восемьдесят




Восемьдесят один



Восемьдесят два




Восемьдесят три



Девяносто



Девяносто один




Девяносто два




Девяносто три



Девяносто четыре



Девяносто пять



Девяносто шесть




Девяносто семь



Сто

Числа от 100
100 dan kegin keluvchi sonlar



Двести



Триста



Четыреста




Пятьсот




Шестьсот




Семьсот




Восемьсот




Девятьсот




Тысячи




Две тысячи




Три тысячи




Четыре тысячи




Пять тысячи




Шесть тысячи




Семь тысячи




Восемь тысячи




Девять тысячи



Десять тысячи



Один миллион



Один миллиард



Mashq

Nuqtalar o'rniga to'g'ri harflarni qo'ying.

- 25 (двадцать пять)
- 10 (д ть)
- 5 (п ть)
- 800 (в т)
- 400 (ч а)
- 1.000.000 (м н)
- 42 (с к д а)
- 75 (с ь п ь)
- 100 (с о)
- 300 (т а)
- 89 (в ь д ь)
- 74 (с ь ч е)
- 100.000 (с о т ч)
- 67 (ш т с ь)
- 38 (т ь в ь)

Порядковые числительные Tartib sonlar

109. Первый - birinchi;
 110. Второй - ikkinchi;
 111. Третий - uchinchi;
 112. Четвёртый - to'rtinchi;
 113. Пятый - beshinchi;
 114. Шестой - oltinchi;
 115. Седьмой - yettinchi;
 116. Восьмой - sakkizinchi;
 117. Девятый - to'qqizinchi;
 118. Десятый - o'ninchi;

Математические действия Matematik amallar

119. Вычитания - Ayiruv: (Vetchina) Tasavvur qiling, vetchina sotib olmoqdasiz, narxi juda qimmat, yetmagan joyiga qaytimni ham ayirib tashlashmoqda;
120. Вычитать - ayirmoq;
121. Деление - bo'luv: (Delete) Siz kompyuterda kasrlarni bo'lmoqchi bo'ldingiz, biroq «Delete» tugmasini bosib, hamma narsani o'chirib yubordingiz;
122. Делить - bo'lmoq;
123. Сложение - qo'shuv: (Sloveniya) Sloveniya davlati o'z tarkibiga sizni ham qo'shib olmoqda;
124. Сложить (матем.) - qo'shmoq;
125. Прибавлять - qo'shmoq: (Pribaltika) Pribaltika ham xuddi shu ishni qildi;
126. Умножение - ko'paytirma: (Ummon, Jenni) Ummon guruhi hamda qo'shiqchi Jenni ko'paytirma jadvali haqida qo'shiq kuylab chiqishdi;
127. Умножать - ko'paytirmoq;

Числа. Разное Sonlar. Har xil

128. Цифра - raqam; (Sement) Tasavvur qiling, raqamlar uyingizdagi qopdagi sementni tashishmoqda;
129. Число - son; (Chesnok) Oq chesnok sonlar bilan yerda o'sayotganini tasavvur qiling;
130. Числительное - sanoq son; (Chelsi telefon) Chelsi o'yinchisi sanoq sonlarni yoddan chiqarib murabbiysiga o'yin paytida telefon qilmoqda;
131. Минус - minus;
132. Плюс - plus;
133. Формула - formula;
134. Вычисление - hisob; (VICH infeksiya) Tasavvur qiling, VICH infeksiya matematik hisoblarni uychmoqda;
135. Считать - hisoblamoq, sanamoq; (Sochi) Tasavvur qiling Sochi shahri olimpiadadan topgan pulini uch yildan buyon sanamoqda;
136. Сравнить - solishtirmoq, taqqoslamoq; (Sarvar) Sarvar novvot bilan shakarni taqqoslab oxiri ikkalasini ham aralashtirib ichib yubordi;
137. Сколько - qancha, nech; (Sotka) Bozordan telefon olmoqchi edingiz narxi qancha ekanligini bilib qaytib ketdingiz;
138. Сумма - miqdor, summa;
139. Результат - natija; (Rezinka) Tasavvur qiling, matematik misolning natijasi rezinka bo'lib chiqdi;
140. Остаток - qoldiq; (Asad) Tepakal Asad non qoldiqlarini kasha qilib yeb qo'ydi;
141. Несколько - bir nechta; (Nestle) Siz do'kondan bir nechta "Nestle" sutini sotib olib barchasini ichib qo'ydingiz;
142. Немного - oz; (Namangan) Tasavvur qiling, Namanganda oz miqdorda suv qolgan, odamlar baliqdek tipirchilashmoqda;
143. Остальное - qolgani; (Astronomiya) Astronomiya fani tadqiqotlardan charchab qolgan ishni fizikaga topshirdi;
144. Полтора - yarim; (Palata) Tasavvur qiling, sizga kasalxona palatasining yarimida yurishga ruxsat berildi, xolos;
145. Половина - yarim; (Piramida) Faraz qiling, kuchli yomg'irdan so'ng piramidaning yarimi yo'q bo'lib qoldi;

**Umumiy Mashq** Bo`sh joylarga to'g'ri harflarni qo'ying.

Остальное

Т _ _ _ _ й

П _ _ _ _ а

П _ _ _ _ а

Ш _ _ _ _ й

У _ _ _ _ ь

С _ _ _ а

Д _ _ _ _ _ й

Ч _ _ _ о

Ср _ _ _ _ _ ь

Ск _ _ _ о

Ц _ _ _ а

Чис _ _ _ _ _ е

С _ _ _ _ ь

Д _ _ _ _ ь

Вы _ _ _ _ _ е

О _ _ _ _ _ к

Ре _ _ _ _ _ т

С _ _ _ _ _ ь

Вы _ _ _ _ _ ь

Се _ _ _ _ _ й

**Audio****Matndagi tushib qolgan so'zlarni tinglab yozing**

- Добрый день, Саша.

- Добрый день, Маша.

- Мне _____ лет, а тебе?

- Мне _____ года.

- У меня _____ яблок, возьми _____.

- Спасибо, Маша, один мне, _____ моей маме.

**Дни недели
Hafta kunlari**

146. Понедельник - dushanba;

147. Вторник - seshanba;

148. Среда - chorshanba;

149. Четверг - rayshanba;

150. Пятница - juma;

151. Суббота - shanba;

152. Воскресенье - yakshanba;

153. Сегодня - bugun: (Sevgi, odno) Bugun siz odnoklassniki saytida sevgi chatida qatnashishga taklif etildingiz;
154. Завтра - ertaga: (Zavtrak) Ertaga zavtrakka sizga beshbarmoq berishmoqchi, shu sabab siz bugun kunbo`yi ro`za tutib yuribsiz;
155. Послезавтра - indinga: (Posilka, zavtrak) Tasavvur qiling, sizga indinga posilkada zavtrak keltirishadi;
156. Вчера - kecha: (Vecher) Siz kecha sinfdoshlaringizga ajoyib vecher qilib berdingiz, ammo hech kimga yoqmadi;
157. Позавчера - o'tgan kuni: (Poza, vecher) Siz o'tgan kuni maxsus pozada o'tirgan edingiz, qo'shnilaringiz bo'lsa vecher qilishayotgandi;
158. День - kun: (Dengiz) Siz kun davomida dengizda suzdingiz, tun tushishi bilan qaytib kirib ketdingiz;
159. Рабочий день - ish kuni: (Robot dengiz) Siz ish kunida siz robotlar bilan dengizda suzib yurdingiz;
160. Праздничный день - bayram kuni: (Fraza dengiz) Bayram kuni siz do'stlaringiz bilan turli xil frazalarni aytib dengizda suzyabsiz;
161. Выходной день - dam olish kuni: (vxod dengiz) Dam olish kuni sizga dengiz oldida vxoddan qo'yishmadi;
162. Выходные - dam olish kunlari;
163. Весь день - butun kun: (Bez dengiz) Siz butun kun davomida bezlaringizdan qutulishingiz uchun dengizda cho`mildingiz;
164. 2 дня назад - 2 kun avval;
165. Ежедневно - har kunlik: (Yemit nevroz) Siz har kunlik vaqtingizni yemitlar bilan o'tkazmoqdasiz, sizda nevroz;
166. Неделя - hafta: (Nadal) Siz hafta davomida Nadal bilan tennis o`ynadingiz va ancha charchadingiz;
167. Каждый день - har kuni: (Kajol dengiz) Siz har kuni Kajol bilan birgalikda dengizda cho`mildingiz;



Mashq

Hafta boshi "Понедельник" singlisini _____ ni ko'rib qolib jiyani _____ ni tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun uning uyiga borishdi. Qo'shnisi _____ tug'ilgan kuni bo'layotgan _____ ga sovg'a olish uchun ukasi _____ bilan maslahatlashibdi.

Ukasi hech qanday fikr bildiradi olmagani uchun eng dono _____ning yoniga borishibdi va ularning barchasi _____ga haftadagi eng zo'r kunni ya'ni _____ni sovg'a qilishga kelishibdi. Shu kundan so'ng ya'ni _____ barcha bosh o'g'rig'i bilan uydan chiqibdi. Shundan so'ng barcha hafta kunlari _____ shunday dam olishga kelishib olishibdi.

Самые важные глаголы Eng asosiy fe'llar

168. Бежать - yugurmoq: (Bekat) Tasavvur qiling, katta qora begemot ko'chada akulani ko'rib qo'rqanidan bekat tomon yugurib ketdi;
169. Бояться - qo'rqmoq: (Boy asta) Siz boy otadan qo'rqib sekin asta uning pulini olib qochib ketdingiz;
170. Брать - olmoq: (Barg) Tasavvur qiling, siz daraxtda oltin bargni ko'rib qoldingiz va uni olish uchun 10 metrlik daraxtga chiqmoqdasiz;
171. Быть - bo'lmoq: (Bit) Kichkina bit odam bo'laman, deb sochingiz ichida yugurib yuribdi;
172. Видеть - ko'rmoq: (Bilet) Amerikaga olgan biletningiz sizni yaqinroq ko'rish uchun ko'zoynak sotib oldi;
173. Владеть - egalik qilmoq: (Vali dieta) Qiziqchi Vali butun dunyoga egalik qilmoqchi bo'lib avval ishni dietadan boshlamoqda;
174. Возражать - qarshilik qilmoq: (Vazir jannat) Tasavvur qiling, sizning ko'zi ko'r vaziringiz siz uchun jannatdan joy olmoqda, lekin farishtalar qarshilik qilmoqdalar;
175. Входить - kirmoq: (Vohid) Sinfdozingiz Vohid imtihonga kirish uchun o'zini katta odamdek tutib yana soqol ham qo'yib oldi;
176. Выбирать - tanlamoq; (Ibrat) Sochi oq Ibrat kiyim tanlash uchun yoniga mashhur dizaynerlarni chaqirib, bozorni issiqda aylantirmoqda;
177. Выходить - chiqmoq; (Mix adib) Tasavvur qiling, omboringizdagi mix o'zini adib, deb o'ylab kitob yozishni boshladi;
178. Говорить - gapirmoq; (Granit) Dunyodagi eng katta granit tosh siz bilan gaplashmoq uchun qanot yo'yib uchib keldi;
179. Готовить - tayyorlamoq; (Katta it) Tasavvur qiling, oshxonangizda katta it ovqat tayyorlamoqda;
180. Давать - bermoq; (Davlat) Tasavvur qiling, Rossiya davlati sizga tekinga uy va mashina bermoqda;
181. Делать - qilmoq; (Dev it) Qora dev itni odam qilmoq uchun unga gapirishni o'rgatmoqda;
182. Доверять - ishonmoq; (Tabiat) Tasavvur qiling, butun bir tabiat sizga barcha hayvonlarni ishonmoqda, endi nima qilasiz?

183. Думать - o'yalamoq; (Dum) Mushukning uzun dumi qanday qilib boyib ketsam ekan, deb o'yalamoqda;
184. Жаловаться - arz qilmoq; (Jala usta) Tasavvur qiling, jala uyingizdagi ustani oqizib ketdi siz uning ustidan sudga arz qilib bordingiz;
185. Ждать - kutmoq; (Jamiyat) Tasavvur qiling, butun bir jamiyat sizni hojatxonadan chiqishingizni kutmoqda;
186. Забывать - yoddan chiqarmoq; (Zaynab) Esi past Zaynab 5 yildan beri qayerda yashashini yodidan chiqarib qo'shni uyga kirib ketdi;
187. Завтракать - nonushta qilmoq; (Zafar kit) Kal Zafar nonushta qilib o'tirgandi yoniga qizil kit kelib, suv so'rashni boshladi;
188. Заказывать - buyurtma bermoq; (Zakaz) Siz buyurtma bergan zakaz 4 soatdan beri olib kelinmadi, ammo siz hali ham kutib o'tiribsiz;
189. Заканчивать - tugatmoq; (Zakazchi) Tilla zakazchisi ishini tugatib tillani olaman, deb kelib qarasa, tillachi yo'q emish;
190. Замечать - sezmoq; (Zamira) Tasavvur qiling, Zamiraning ortidan qiliq qilayotgan edingiz, u buni sezib qolib yuzingizga tarsaki tushurdi;
191. Записывать - yozmoq; (Zarli ip) Xayolingizga zarli uzun ip osmonda sizning nomingizni yozayotganini keltiring;
192. Защищать - himoya qilmoq; (Zar shisha) Katta zarli shisha sizni o'g'ri va qaroqchilardan himoya qilmoqda;
193. Звать - chaqirmoq; (Savat) Tasavvur qiling, oq savat sizni o'rmonga qo'ziqorin terishga chaqirmoqda;
194. Знать - bilmoq; (Zina) Beroyon osmonga olib chiquvchi zina sizning barcha sirlaringizni bilib qoldi;
195. Играть - o'ynamoq; (Ibrat) Tasavvur qiling, ozg'in Ibrat koptok o'ynab, bilmasdan oyog'ini sindirib oldi;
196. Идти - yurmoq; (It) Kichkina oq it yurishni bilmaydi, siz ona bo'lib unga yurishni o'rgatmoqdasiz;
197. Извинять - kechirmoq; (Iz niyat) Niyat qilib, ko'chada izini qoldirib yurgan qora it buqaning oyog'ini bosib olib, kechirim so'ramoqda;
198. Изменить - o'zgartirmoq; (Izumrud) Yashil izumrud hameleonga o'xshab rangini o'zgartirmoqda;
199. Изучать - o'rganmoq; (Ruchka) Tasavvur qiling, ko'k ruchka balet o'ynashni o'rganmoqda;

200. Иметь - ega bo'lmoq; (Internet) Tasavvur qiling, internet besh yildan so'ng barchaning ongiga egalik qilmoqda;



Mashq

So'zlarni to'g'irlab yozing

Жатьд - ждаты

Говотить -

Дмуать -

Иетьм -

Зцайтць -

Ичузаты -

Длтъеа -

Вдитъе -

Гвотирьо -

Иргаты -

Збывтаъ -

Бъты -

Вхыдоиът -

Датьва -

Итид -

201. Интересоваться - qiziqmoq; (Internet savat) Oddiy savat internet o'yinlarga qiziqib hayoti haqida unutib qo'ydi;

202. Информировать - xabar bermoq; (Informatika) Tasavvur qiling, informatika barcha so'nggi yangiliklar haqida xabar bermoqda;

203. Искать - qidirmoq; (Skat) Tasavvur qiling, oppoq skat ko'k akuladan qarz olish uchun uni qidirmoqda;

204. Контролировать - boshqarmoq; (Kompyuter) Eng yangi kompyuter dunyodagi barcha korxonalarini boshqarmoqda;

205. Красть - o'g'irlamoq; (Kasting) Tasavvur qiling, kino kasting davomida kimdir kompyuterni o'g'irlab ketdi;

206. Кричать - baqirmoq; (Krishna) Tasavvur qiling, Krishna Xudosi ko'chada ashula aytib baqirib yuribdi;

207. Купаться - cho'milmoq, yuvinmoq; (Kapusta) Yashil katta kapusta basseynida sovun bilan yuvinmoqda;

208. Лететь - uchmoq; (Laylak) Tasavvur qiling, osmonda uchayotgan laylak chanqab, yerga tushib, sizdan suv so'ramoqda;

209. Ловить - ushlab olmoq; (Lava) Qaynoq lavani xayolingizga keltiring, u vulqon ichiga tushib ketayotgan bolani ushlab qoldi;

210. Ломать - sindirmoq; (Lanat) Tasavvur qiling, yalmog'iz oppog'oyini la'natlagandan so'ng, u telefonini sindirib qo'ydi;

211. Любить - sevmοq; (Lyudvik) Lyudvik van Bethoven sizni sevib qolib, qo'lingizni so'ramoqda;

212. Молиться - iltijo qilmoq; (Militsiya) Tasavvur qiling, militsiya maosh ko'tarilishi uchun osmonlarga iltijo qilmoqda;

213. Молчать - jim turmoq; (Molcha) Yo'l o'rtasida yolg'iz qolib ketgan molcha, qo'rqib jim turibdi;
214. Наблюдать - kuzatmoq; (Mavlyuda) Tasavvur qiling, sochi o'ralgan Mavlyuda sizni o'g'ri, deb kechadan beri kuzatmoqda;
215. Надеяться - umid qilmoq; (Nodir usta) Nodir usta qurgan uy hali bitmagan edi, yomg'ir yog'ib, g'ishtlar ko'chib ketmasin, deb umid qilib uxlay olmayabdi;
216. Наказывать - jazolamoq; (Nazokat) Qo'shningiz Nazokatning eri tunda ichib kelgani uchun erini jazolab ko'chaga chiqarib qo'ydi;
217. Настаивать - qat'iy turmoq; (Nos hayvon) Nos hayvonning yo'lini to'sib, uni chakib ko'rmagunicha yo'l bermayman, deb qat'iy turib oldi;
218. Находить - topmoq; (No`xat) Tasavvur qiling, no`xat sizning oshxonangizdan pul topib oldi;
219. Начинать - boshlamoq; (Nachinka) Tasavvur qiling, tort uchun qilingan nachinka birdan janjal qila boshladi;
220. Недооценивать - mensimay qaramoq; (Negr sent) Amerikadan kelgan negr hech kimni mensimay hammani bir sentga tenglashtirmoqda;



Mashq

So'zlarning assotsiatsiyasini yozing

Молчать - (_____ Molcha _____)

Недооценивать - (_____)

Наказывать - (_____)

Ловить - (_____)

Любить - (_____)

Купаться - (_____)

Молиться - (_____)

Искать - (_____)

Кричать - (_____)

Интересоваться - (_____)

Настаивать - (_____)

Находить - (_____)

Ломать - (_____)

221. Нравиться - yoqtirmoq; (Navigatsiya) Sizga navigatsiya yoqib qolgani uchun uni uyingizga olib ketib boqmoqdasiz;
222. Обедать - kunduzgi ovqatlanish; (Abdulla) Abdulla kunduzgi ovqatlanish paytida ovqatiga ko'p tuz solib qo'yib och qoldi;
223. Обманывать - aldamoq; (Abdulla manti) Tasavvur qiling, Abdulla mantini aldab chet elga sotib yubordi;
224. Обсуждать - muhokama qilmoq; (Achchiq) Tasavvur qiling, sud paytida achchiq haqiqat yuzaga chiqib, mushuk qamaldi;
225. Объединять - birlashtirmoq; (Obid niyat) Tasavvur qiling, Obid niyat qilib butun dunyoni birlashtirib yubordi;
226. Объяснять - tushuntirmoq; (Biser) Tasavvur qiling, biser sizga butun dunyo sirlarini tushuntirmoqda;
227. Означать - anglatmoq; (Ozgina) Siz dars paytida ozgina kulib qo'ygan edingiz, o'qituvchingiz buni haqorat, deb anglab sizga ikki qo'ydi;
228. Освобождать - ozod qilmoq; (Asal najot) Arini qamoqqa tiqib qo'yishdi, uning najoti asalda, asal kelib uni ozod qildi;
229. Оскорблять - haqorat qilmoq; (Askar) Siz askarni haqorat qilganingiz uchun sizni o'n kunga qamab qo'yishdi;
230. Останавливаться - to'xtamoq; (Yostiq usta) Uyquchi usta ishini to'xtatib yostiqqa boshini qo'yib, bir daqiqada uxlab qoldi;
231. Отвечать - javob bermoq; (Achavat) Tasavvur qiling, achavat ichida siz telefonda gaplasha olmay javob berishga qiynalmoqdasiz;
232. Отгадать - topmoq; (Ahad) Javobi uchun bir million beruvchi topishmoqqa besh yoshlik Ahad javob topdi;
233. Отказываться - ra'd etmoq; (Kamaz asta) Katta zil kamazga turmushga chiqishga taklif qilgan edi kamaz sekin uni ra'd etdi;
234. Открывать - ochmoq; (Atir vatt) Atir televizor ichini ochgan edi uni kuchli vattida tok urdi, atir o'ldi;
235. Отправлять - yubormoq; (Atala) Tasavvur qiling, sizga kimdir atala yuborib ustingizdan kuldi;
236. Охотиться - ovlamoq; (Ahror titsa) Ahrorning sumkasini quyon titgani uchun endi Ahror uni ovlamoqda;
237. Ошибаться - adashmoq; (Alisher bo'sa) Tasavvur qiling, Alisher xotinini o'rniga boshqa qizdan adashib bo'sa oldi;

238. Падать - yiqilmoq; (Parda) Tasavvur qiling, mast bo'lib qolgan parda uyiga kelib, yiqilib tushdi;

239. Переводить - tarjima qilmoq; (Parik) Tasavvur qiling, qora parik tarjimonlik qilib million-million pul topmoqda;

240. Писать (Pisat') - yozmoq; (Pepsi) Siz pepsini urganingiz uchun u ustingizdan yozib yubordi;



Mashq

Tushirib qoldirilgan harflarni toping

ошибаться

__ __ са__ __ ь

__ __ отит __ __ я

__ __ суж__ __ __ ь

__ __ ави__ __ ся

__ __ веч__ __ ь

__ __ еда__ __ ь

__ __ гад__ __ ь

__ __ да__ __ ь

241. Плавать - suzmoq; (Palto) Tasavvur qiling, sariq palto issiqda charchab, basseynida suzib yuribdi;

242. Плакать - yig'lamoq; (Plakat) Tasavvur qiling, it plakatning ostiga peshob qo'ydi, plakat yig'lab o'tiribdi;

243. Планировать - rejalashtirmoq; (Plombir) Tasavvur qiling, plombir keyingi yil qayerda dam olishini rejalashtirmoqda;

244. Платить - to'lamoq; (Platinum) Tasavvur qiling, platinum klubga kirishi uchun bir tiyin ham to'lamay boshini ko'tarib kirib ketdi;

245. Поворачивать - qayiltirmoq; (Povar chivin) Povarning asabiga o'ynagan chivin tutilib bo'yni qayiltirib tashlandi;

246. Повторять - qaytarmoq; (Paxta ayiq) Paxta ayiqqa qarz berdi, uni qaytarish uchun tun-u kun ishlamoqda;

247. Подписывать - imzolamoq; (Parta svet) Parta svetga pul to'lamagani uchun shtraf to'lash uchun qog'ozni imzolamoqda;

248. Подсказать - yordam bermoq; (Parda skat) Skat suzib suvdagi pardaga o'ralib qoldi, unga yordam berish uchun boshqa skatlar keldi;

249. Показывать - ko'rsatmoq; (Parazit) Tasavvur qiling, yerda yuruvchi parazitlar xalqqa o'z kuchini ko'rsatib oyoqqa turishdi;

250. Помогать - yordam bermoq; (Palma) Tasavvur qiling, palma daraxti sizga uy yig'ishga qarashmoqda;

251. Понимать - tushunmoq; (Paynet) Tasavvur qiling, paynet sizga matematikani o'rgatmoqda, siz uni tushunish uchun paynet tilini o'rganmoqdasiz;

252. Предвидеть - oldindan ko'rmoq; (Pirog it) It pirog yeb, hayotiy voqealarni oldindan ko'ra boshlabdi;

253. Предлагать - taklif qilmoq; (Pirat) Tasavvur qiling, pirat sizga u bilan dengiz bo'ylab suzishni taklif qilmoqda;

254. Предпочитать - yoqtirmoq, afzal ko'rmoq; (Pled pochta) Sovuqda qolib ketgan pochta ustiga pled o'rab kofe ichib o'tiribdi;

255. Предупреждать - ogohlantirmoq; (Pyure reja) Pyure rejalarini hech kimga aytmay bilib qolgan insonni o'ldirishi haqida ogohlantirdi;

256. Прекращать - bas qilmoq; (Pashsha) Pashsha tuni bilan baraban chalib hech kimga uyqu bermadi, tongda oxiri bas qildi;

257. Приглашать - taklif qilmoq; (Pirog shar) Pirog tug'ilgan kuniga katta qizil sharni uyiga taklif qildi;

258. Приезжать - kelmoq; (Priz eshak) Toshkentda priz yutib olgan eshak Buxorodan issiq kunda piyoda keldi;

259. Приказывать - buyurmoq; (Zakovat) Tasavvur qiling, zakovat o'yinchilari sizga suv olib kelishni buyurishmoqda;

